



Ommaviy Madaniyatning Jamiyat Hayotiga Salbiy Ta'siri

Abdurahmonov Muhammad Abdurahmon o'g'li

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti magistranti

Email:Muhammadabdurahmonov7707@gmail.com

ABSTRACT

Mazkur maqolada ommaviy madaniyat tushunchasining mazmun-mohiyati ochib beriladi va uning zamonaviy jamiyat hayotiga ko'rsatadigan ko'p qirrali ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, ommaviy madaniyatning yoshlar ongiga ta'siri, an'anaviy qadriyatlarga munosabati, madaniy xulq-atvor va iste'mol madaniyati shakllanishiga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali ommaviy madaniyatning global darajada tarqalish jarayonlari ko'rib chiqiladi. Maqolada ommaviy madaniyatning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, uning salbiy oqibatlari, xususan, shaxsiylikning yo'qolishi, stereotiplar kuchayishi va milliy madaniyatga bo'lgan tahdidlar ham muhokama qilinadi. Xulosa qismida esa, jamiyatni madaniyatsizlikdan asrash, tanqidiy fikrlashni shakllantirish va milliy qadriyatlarni asrash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

ARTICLE INFO

Received: 11th April 2025

Accepted: 10th May 2025

KEY WORDS: ommaviy madaniyat, ijtimoiy ong, globalizatsiya, qadriyatlar, yoshlar, axborot vositalari, stereotip, milliy madaniyat

ANNOTATION: This article explores the concept of mass culture and examines its multifaceted impact on modern society. It focuses on how mass culture influences youth consciousness, affects traditional values, and shapes cultural behavior and consumer habits. The study highlights the role of the internet, social media, and mass media in spreading mass culture globally. Both the advantages and disadvantages of mass culture are discussed, including the loss of individuality, the rise of stereotypes, and the threat to national cultures. In conclusion, the article provides recommendations on how to protect society from cultural degradation, foster critical thinking, and preserve national identity.

KEY WORDS: mass culture, social consciousness, globalization, values, youth, media, stereotype, national culture.

АННОТАЦИЯ: В статье раскрывается сущность понятия массовой культуры и анализируется её многогранное влияние на современное общество. Особое внимание уделяется воздействию массовой культуры на сознание молодежи, традиционные ценности, культурное поведение и потребительские привычки. Рассматриваются процессы глобального распространения массовой культуры через интернет, социальные сети и средства массовой информации. В работе анализируются как положительные, так и отрицательные стороны массовой культуры, включая утрату индивидуальности, усиление стереотипов и угрозу национальным культурам. В заключение даны

рекомендации по защите общества от культурной деградации, развитию критического мышления и сохранению национальных ценностей.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: массовая культура, общественное сознание, глобализация, ценности, молодежь, СМИ, стереотипы, национальная культура

KIRISH

Jamiyatning bugungi kundagi muammolari sifatida iqtisodiy yoki moliyaviy tanglikdan ko'ra, kishilarning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy begonalashuvlari, ularning jamiyat qonun qoidalaridan yiroqlashuvi tanazzulning birlamchi atributi sifatida ko'riladi. Axloqiy tanglikning kelib chiqishi nafaqat ma'lum bir jamoa, jamiyat yoki davlat miqyosida bo'libgina qolmay balki butun boshli insoniyat uchun ham global muammo sanaladi.

Fransuz faylasufi Rene Dekart “ Tushunchalar ma'nosini aniqlashtiring va bu insoniyatning yarmini adashishdan saqlaydi”[Ochildiyev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. –T.: Muharrir nashriyoti. –B. 64] deb yozgan.

Yot g'oyalar va demokratiyani eksport qilish, behayolikni madaniyat deb boshqa yurtlarda targ'ib etish, san'at deya zo'ravonlikni, faxshni ko'rsatish kabi mafkuraviy hujum shakllari kundan kunga ortayotganligi hech kimga sir emas. Bu hujumlarga esa birinchi navbatda yoshlar nishon bo'lib, jamiyatimizga nisbatan mafkuraviy tahdid ortmoqda.

Komilova D. va Mirzyeva N bu borada shunday fikr bildirgan: “ Ommaviy madaniyat –bu faqat pop-kultura emas, balki global mafkuraviy vosita bo'lib, yosh avlod ongiga tahdid soluvchi xavfli hodisadir” [Komilova. D, Mirzayeva N. Ommaviy madaniyat. 2024. Oriental Art and Culture 5 <https://oac.dsmi-qf.uz>]. Bu borada birinchi prezidentimiz Islom Karimovning “ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 17 yilligi” ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida ham alohida e'tibor berilib: “... ma'lumki bugungi kunda farzandlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, hozirgi murakkab va tahlikali zamonda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan turli xil xurujlar yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani barchamizni yanada xushyor va ogoh bo'lishga da'vat etishi tabiiydir. Shu sababli, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik, chetdan kirib kelayotgan har xil zararli ta'sirlardan “ Ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi tahdid va xatarlardan asrash masalalari bir zum ham e'tiborimizdan chetda qolmasligi darkor”[Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir// Xalq so'zi, 2009 yil 9-dekabr].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ma'naviyat masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan 2021 yil 19 yanvardagi videoselektor yig'ilishida quyidagilarni bayon etdilar: “ Afsuski, hali oramizda milliy g'oyaning, ma'naviyatning mohiyatini to'liq anglab yetmaganlar, ma'naviyat kerakmi-yo'qmi deb yurganlar ham yo'q emas. Milliy g'oya deganda eski sovet mafkurasini tasavvur qilib labiga uchiq toshayotganlar ham yo'q emas. Bu ham haqiqat. Lekin agar mafkura odamiy bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini, uning qadr-qimmatini ulug'lashga xizmat qilsa, nima uchun undan qo'rqishimiz kerak? Hamma harakatlarimizning asosi-xalqimizni rozi qilish. Shu munosabat bilan ta'kidlamoqchiman, biz yaratayotgan Yangi O'zbekistonning mafkurasi-ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Albatta, bu yuksak g'oyalar osmondan tushmagan. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va

qadriyatlariga asoslangan” [Mirziyoyev.Sh. ma’naviyat masalalariga bag’ishlangan nutq. 2021 yil 20-yanvar. <https://kun.uz/news/2021/01/20>].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda ommaviy madaniyatning jamiyat hayotiga ta’sirini aniqlash va baholash uchun bir nechta metodlardan foydalanildi. Asosan quyidagi ilmiy yondashuvlar asos bo’ldi.

1. Kontent tahlil usuli- OAV, filmlar, ijtimoiy tarmoqlar va reklamalardagi asosiy mavzular va obrazlar o’rganildi.
2. Kuzatuv- yoshlar hayotidagi kiyinish, til, axloq va didagi o’zgarishlar bevosita kuzatildi.
3. Taqqoslash va tahlil- hozirgi holat ilgari mavjud qadriyatlar bilan solishtirildi.
- 4.

NATIJALAR

Kuzatuv va tahlillar shuni ko’rsatdiki, ommaviy madaniyat quyidagi asosiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda:

- Shaxsiylik yo’qolishi va standartlashuv
- Ijtimoiy stereotiplarning kuchayishi
- Mahalliy va milliy qadriyatlarga e’tibor kamayishi
- Behayo va zo’ravonlikka asoslangan kontentlarga qiziqish ortishi

Olingan ma’lumotlar zamonaviy ommaviy madaniyatning milliy qadriyatlarga ta’siri nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Yuzaga kelgan ijtimoiy, axloqiy va madaniy o’zgarishlar ilgari mavjud bo’lgan holatlar bilan solishtirildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar orqali ommaviy madaniyatning jamiyat hayotiga qanday ta’sir ko’rsatayotgani chuqur tahlil qilindi va maqolada bu xulosalar ilmiy asosda bayon etildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu tushuncha ilk bor Frankfurt maktabi vakillari — Teodor Adorno va Maks Horkxaymer tomonidan chuqur nazariy tahlil etilgan. Ularning "Dialectic of Enlightenment" asarida madaniyat industriyasi orqali inson ongiga qanday ta’sir ko’rsatilishi ochib beriladi. Mualliflarning fikricha, ommaviy madaniyat insonni mustaqil fikrlashdan mahrum qiladi va uni passiv iste’molchiga aylantiradi. Ular yozadilar: “Bugungi madaniyat hamma narsani bir xil qilish bilan ifloslantirmoqda” (Adorno.T, Horkheimer.T. Dialectic of Enlightenment. 2002. –B. 94). Bu yondashuvda madaniyat — manipulyativ vosita sifatida baholaydi.

Mualliflar ommaviy madaniyat inson tafakkurining individualligini yo’qotib , uni standart va shablon doirasiga solib qo’yishini tanqid qiladilar.

Marshall McLuhan esa ommaviy axborot vositalarining ta’sirchanligini boshqa yo’nalishda izohlaydi. U o’zining "Understanding Media" (1964) asarida

“ Axborot bu vosita ”[McLuhan.M. Understanding Media:The extensions of Man. MIT Press, 1994. –B.63] deb yozadi ya’ni ommaviy axborot vositalarining o’zi mazmun darajasiga ko’tariladi. Unga ko’ra, ommaviy madaniyat insoniyat idrokini o’zgartirib, jamiyatdagi muomala, o’rganish va muloqot shakllarini tubdan yangilaydi.

Adabiyotlarda shuningdek, Mario Vargas Llosa kabi yozuvchilar madaniyatning "o’limi" haqida yozgan. Uning "Notes on the Death of Culture" (2015) kitobida yozilishicha: “Biz madaniyatni ko’ngilocharlikka aylantirib yubordik, bu esa jiddiy oqibatlarga olib kelmoqda”[Llosa.M. Notes on the Death of Culture. Farrar. Straus and Giroux, 2015. –B. 15].

Hasanboyeva N. shunday fikr bildirgan: “Ommaviy madaniyat insonning individuallik, mustaqil fikrlash va ma’naviy qadriyatlariga tahdid soladi”[Hasanboyeva N. Ommaviy madaniyat va yoshlar ongiga ta’siri.-T.:TDYU. 2020.-B.23].

Karimov I. shunday fikr bildirgan: “ Ommaviy madaniyat inson ongini passiv holatga olib borib, uni iste’molchilikka o’rgatadi”[Karimov I. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.-T.:Ma’naviyat.-B.52].

XULOSA

Ommaviy madaniyatning ijtimoiy ongga ta’siri chuqur va ko’p qirrali. Uni butunlay rad etish emas, balki uni tanqidiy tahlil asosida to’g’ri yo’naltirish lozim. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, milliy qadriyatlarni ilgari surish, axborot savodxonligini oshirish zaruratga aylangan. Ta’lim muassasalarida media va madaniy savodxonlik fanlarini joriy etish orqali bu borada ijobiy natijalarga erishish mumkin. Shunga muvofiq Eshtemir Jumayev quyidagicha fikr bildirgan: “ Yosh avlodni ommaviy madaniyat tahdidan asrash uchun yuksak insoniylik va odobga asoslangan milliy g’oyaga suyanishimiz kerak” [Jumayev.E. Madaniyat va “ ommaviy madaniyat”ning yoshlarga ta’siri to’g’risidagi falsafiy g’oyalar va qarashlar. O’zMU Xabarleri. 2024. 1. –B. 97-100].

Ilmiy amaliy takliflar

- Milliy qadriyatlarni ommaviy axborot vositalarida keng targ’ib qilish – Ommaviy madaniyatning biryozlama ta’sirini muvozanatlash uchun milliy urf-odat, an’ana va ma’naviy qadriyatlarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali jozibador shakllarda targ’ib etish lozim.
- Ijodkorlar va kontent yaratuvchilarni rag’batlantirish – Ommaviy madaniyatga sog’lom ijtimoiy mazmun olib kiruvchi film, musiqa, blog va adabiy asarlar yaratgan mualliflarni grantlar, mukofotlar va boshqa yo’llar bilan qo’llab-quvvatlash kerak.
- Tadqiqotlar va monitoring tizimini yo’lga qo’yish – Ommaviy madaniyatning yoshlar va jamiyat hayotiga ta’sirini doimiy ravishda ilmiy asosda o’rganish, so’rovnomalar, ijtimoiy monitoring va tadqiqotlar olib borish uchun mustaqil ilmiy markazlar tashkil etilishi lozim.
- Madaniyat siyosatini takomillashtirish – Davlat darajasida ommaviy madaniyatni tartibga solish, uning ijtimoiy salohiyatini oshirish va zararli ta’sirini cheklovchi strategik hujjatlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Ochildiyev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. –T.: Muharrir nashriyoti. –B. 64
2. Karimov I.A. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi biz uchun demokratik taraqqiyot yo’lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir// Xalq so’zi, 2009 yil 9-dekabr
3. Mirziyoyev.Sh. ma’naviyat masalalariga bag’ishlangan nutq. 2021 yil 20-yanvar. <https://kun.uz/news/2021/01/20>
4. Adorno.T, Horkheimer.T. Dialectic of Enlightenment. 2002. –B. 94
5. McLuhan.M. The extensions of Man. MIT Press. 1994. –B.63
6. Llosa.M. Notes on the Death of Culture. Farrar. Straus and Giroux. 2015. –B. 15
7. Komilova. D, Mirzayeva N. Ommaviy madaniyat. 2024. Oriental Art and Culture 5 <https://oac.dsml-qf.uz>
8. Hasanboyeva N. Ommaviy madaniyat va yoshlar ongiga ta’siri.-T.:TDYU. 2020.-B.23
9. Karimov I. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.-T.:Ma’naviyat.-B.52

- 10.** Jumayev.E. Madaniyat va “ ommaviy madaniyat”ning yoshlarga ta’siri to’g’risidagi falsafiy g’oyalar va qarashlar. O’zMU Xabarlari. 2024. 1. –B. 97